

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 65 (1664), 2026-yil 4-aprel, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



OLIV TA'LIM VA ILM-FAN TIZIMINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qolaversa, tizimdagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, ilm-fanni iqtisodiyot bilan uzviy bog'lash, ta'lim va tadqiqot integratsiyasini chuqurlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan taqdimotda oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan yangi chora-tadbirlar ko'rib chiqildi.

Jumladan, "U10 — O'zbekistonning global darajadagi ilg'or universitetlari" dasturi amalga oshirildi. Dastur doirasida tanlov asosida 10 ta oliy ta'lim tashkilotiga milliy tadqiqot universiteti maqomi berilib, ularda ilmiy klasterlar tashkil etildi.

Mazkur tanlov professor-o'qituvchi va olimlar salohiyati, ish-tirokchi tashkilotlarning milliy va xalqaro reytinglardagi o'ri, ilmiy infratuzilmasi hamda moliyallashtirishdagi ulushi kabi ko'rsatkichlar asosida o'tkazildi.

Tashkil etiladigan ilmiy klasterlar mahalliy va xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari, ilmiy muassasalar hamda sanoat korxonalarini hamkorligidagi konsorsium sifatida faoliyat yuritadi.

Milliy tadqiqot universiteti maqomi berilgan universitetga ilmiy klaster tashkil etish uchun ilm-fanni moliyallashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash

jamg'arasi hisobidan 150 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida natijaga yo'naltirilgan moliyallashtirish mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Xususan, 2027-yildan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarini ularning milliy reytingdagi natijalariga ko'ra moliyaviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Bunda universitetlar ta'lim sifatini, ilmiy faoliyat, xalqaro hamkorlik, raqamlashtirish va bitiruvchilar bandligi kabi mezonlar asosida baholalanadi.

Davlat granti asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun oliygo'harlarga ajratiladigan mablag'lar miqdorini shakllantirishda ham yangi yondashuvlar taklif etildi. Endilikda ta'lim yo'nalishining murakkabligi, mehnat bozori ehtiyojlari, universitet reytingi, hududiy omillar va professor-o'qituvchilar mehnatini rag'batlantirish kabi ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

Ilmiy tadqiqotlarni moliyallashtirishning yangi tizimi joriy etilishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, davlat ilmiy dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'larning kamida 50 foizi ustuvor yo'nalishlarga sarflanadi.

Loyihalarni saralash xalqaro ekspertiza, ilmiy-texnik kengashlar va tarmoq korxonalarini hamkorlikda amalga oshiriladi.

Shuningdek, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar faoliyatida ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kengaytirishga qaratilgan yangi tizim taklif etildi.

Jumladan, oliygo'harlarning "spin-off" korxonalarini tashkil etish orqali "tarmoq — korxonalar — oliy ta'lim tashkiloti" — ilmiy tashkilot — zanjiri asosida innovatsion mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish nazarda tutilmoqda.

Bu orqali ilm-fan natijalarini amaliyotga joriy etish, texnologik transforni kuchaytirish va universitetlarning tadbirkorlik faolligini oshirish maqsad qilinadi.

O'zbekistonni mintaqaviy ta'lim xabiga aylantirish maqsadida xorijiy talabalarni jalb etish bo'yicha yangi mexanizmlar taklif etildi. Jumladan, har yili respublika davlat oliy ta'lim tashkilotlarida 500 nafargacha iqtidorli chet el fuqarolariga oliy ta'lim olish uchun grant ajratilishi nazarda tutuvchi "Yangi O'zbekiston stipendiyasi" dasturini amalga oshirish belgilanmoqda.

Taqdimotda sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, raqamli ta'lim va sun'iy intellekti rivojlantirish, yoshlarning innovatsion tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa muhim tashabbuslar ham muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni har tomonlama puxta ishlab chiqish, ularni bosqichma-bosqich joriy etish orqali oliy ta'lim va ilm-fan tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan yangi dasturlarini ta'kidladi. Mas'ullarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'ZA

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK INSTITUTINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev to'lovga qobiliyatsizlik institutini takomillashtirish va moliyaviy ahvoli og'ir tadbirkorlik subyektlarini sog'lomlashtirish bo'yicha yangi yondashuvlar yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda xususiy biznesni rivojlantirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ular uchun yanada qulay sharoitlar yaratish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

Islohotlar natijasida yurtimizda 300 mingdan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar va 5,5 million nafar o'zini o'zi band qilgan shaxslar faoliyat yuritmoqda. Xususiy biznesning iqtisodiyotdagi ulushi esa so'nggi besh yilda 45 foizdan 58 foizga oshdi.

Joriy yilda kichik va o'rta biznesga 140 trillion so'm kredit ajratish, banklar tomonidan jalb qilinayotgan 8 milliard dollar tasvii resurslarni mahalladagi tadbirkorlikka yo'naltirish, ishlab chiqarish, savdo va xizmatlar infratuzilmasini yaxshilash uchun hududlarga 20 trillion so'm ajratish belgilangan.

Shu bilan birga, yaratilgan korxonalar va ish o'rinlarini saqlab qolish, moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan tadbirkorlik subyektlarini erta bosqichda qo'llab-quvvatlash borasida hali yechimini kutayotgan masalalar ko'pligi qayd etildi.

Xususan, faoliyat ko'rsatmayotgan va faoliyati tugatilgan kichik korxonalar sonining o'sish tendensiyasi kuzatilayotgani ko'rsatib o'tildi. Bu holat amaldagi tizim korxonani saqlab qolish va qayta tiklashga emas, ko'proq uning faoliyatini rasmiy tugatishga qaratilganidan dalolat berayotgani qayd etildi.

Avvalo, to'lovga qobiliyatsizlik taomillari yetarli darajada qo'llanilmayapti. Moliyaviy ahvoli og'irlashgan 93 mingta tadbirkorning atigi 10 mingtasi bo'yicha to'lovga qobiliyatsizlik ishi qo'zg'atilgan. Sudgacha va sud sanatsiyasi tizimi amalda samarali ishlamayapti, so'nggi besh yilda atigi 68 ta korxonaga sanatsiya taomili qo'llanilgan, shunda ham faqatgina 7 tasining faoliyati tiklangan.

Sud boshqaruvchilari faoliyati ham tanqidiy ko'rib chiqildi. Qator holatlarda ish yuritish muddatlari buzilgan, asossiz xulosalar berilgan, soxta bankrotlik alomatlarini o'z vaqtida o'rganish mexanizmi yetarli emasligi qayd etildi. Sud boshqaruvchilariga haq to'lash tizimidagi bo'shliqlar malakali mutaxassislarni jalb qilishga to'sqinlik

qilyotgani, ayrim holatlarda esa ishlarini sun'iy cho'zishga sabab bo'layotgani ko'rsatib o'tildi. Bundan tashqari, sohaning raqamlashtirilmagani, onlayn monitoring va nazorat yo'qligi, bankrot yoki to'lovga qobiliyatsizlik holatidagi korxonalarining ochiq reyestri mavjud emasligi, davlat organlari o'rtasida ma'lumot almashinuvi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani qayd etildi.

Shu munosabat bilan sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bo'yicha yangi institutsional yondashuvlar taklif qilindi.

Xususan, Adliya vazirligi huzurida To'lovga qobiliyatsizlik ishlari bo'yicha agentlik tashkil etish taklif qilindi. Ushbu tuzilma sohada yagona davlat siyosatini yuritish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, bankrotlik omillarini tahlil qilish va bartaraf etish choralari ko'rish, korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirishga ko'maklashish bilan shug'ullanadi.

Sud boshqaruvchilari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Sud boshqaruvchilari palatasini tuzish taklif etildi. Palata sud boshqaruvchilari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirishni tashkil etadi, ular tomonidan qonunchilik va kasb etikasiga rioya etish monitoringini yuritadi, ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

Moliyaviy ahvoli og'ir biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yangi moliyaviy mexanizmlar ham taqdimot qilindi. Jumladan, kichik va o'rta tadbirkorlar uchun Biznesni kafolatlash milliy kompaniyasi orqali kafillik berish, Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi orqali tijorat banklarida past foizli kredit liniyalari ochish orqali korxonalarni moliyaviy tiklashga ko'maklashish rejalashtirilmoqda.

Xususan, xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari ayrim soliqlar bo'yicha to'lovlarni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berishi, shuningdek, bunday mexanizmlar garov, bank kafolati yoki sug'urta polisi asosida soliq organlari tomonidan ham qo'llanishi mumkin bo'ladi.

Davlat ko'magidagi sudgacha sanatsiya choralari ham kengaytiriladi. Bunda kreditorlar bilan kelishuv, moliyaviy yordam jalb qilish, soliq va kredit to'lovlarni kechiktirish, qarzlarni sotib olish, ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish, korxonani qayta tashkil qilish, malakali mutaxassislarni jalb etish va xodimlarni qayta tayyorlash kabi vositalardan foydalanish mumkin bo'ladi.

Taqdimotda to'lovga qobiliyatsizlik jarayonlarini raqamlashtirish masalasiga ham katta e'tibor berildi. Shu maqsadda to'lovga qobiliyatsizlik ishlari yuritishning yagona elektron platformasini ishga tushirish taklif qilindi. Ushbu platformada to'lovga qobiliyatsizlik ishi yuritilayotgan shaxslar, sanatsiya qo'llanilayotgan korxonalar va sud boshqaruvchilari reyestrlari yuritiladi. Barcha jarayonlar ariza berishdan tortib, korxonani tugatishgacha elektron shaklda olib boriladi. Shuningdek, mazkur tizim jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari uchun ochiq bo'ladi.

Bu orqali sohada ochiqlikni ta'minlash, ma'lumot almashinuvi tezlashtirish, nazorat va monitoringni kuchaytirish, arizalarni ko'rib chiqish muddatlarini qisqartirish imkonini paydo bo'ladi.

Prezidentimiz tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda yangi korxonalar tashkil etish bilan cheklanib qolmasdan, ishlab turgan biznesni saqlab qolish, vaqtincha qiyinchilikka uchragan korxonalar o'z vaqtida ko'mak berish, ularni iqtisodiy faollikka qayta olib chiqish lozimligini ta'kidladi. Mutasaddilarga to'lovga qobiliyatsizlik institutini xalqaro tajriba asosida tubdan takomillashtirish, sohaga zamonaviy boshqaruv, samarali sanatsiya mexanizmlari va raqamli yechimlarni joriy etish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

O'ZA



Inson uchun kindik qoni to'kilgan zamin aziz va muqaddas. U qayerda yashamasin, tug'ilib o'sgan yurtiga, asl ildizlariga intilaveradi, talpinaveradi. Bu bejiz emas. Zero, Vatan — ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk, bebaho meros, eng aziz xotira. U bizni birlashtiradi, kuch-quvvat beradi, maqsadlarimiz sari yetaklaydi.

AWVAL VATAN, KEYIN JON

TOMIRIDA ULUG' AJDODLARIMIZ QONI OQAYOTGAN XALQNING HAYOTI YORUG', KELAJAGI PORLOQ

Millat va xalqni yagona maqsad sari safarbar eta oladigan fenomen hodisa ham Vatan va faqat Vatandir. Inson kasbini, uy-joyini o'zgartirishi mumkin, lekin jonajon yurtini zarga ham, durga ham almashirmaydi. Buning siri bitta — insonda ona bitta bo'lgani kabi Vatan ham yagona bo'ladi. Ikki tanlov yonma-yon kelganida avval Vatan, keyin jon turishi ham shundan.

Bugungi globalashuv va raqamli transformatsiya davrida Vatan tushunchasi yanada keng ma'no kasb etib, milliy o'zlik, qadriyat va jamoaviy mas'uliyat bilan uyg'unlashmoqda. Zamonaviy jamiyatda Vatan va qalb quvvati bir-biri bilan

chambarchas bog'liq tushunchalar sifatida namoyon bo'lmoqda.

Vatan tuyg'usi esa qalbdan, vijddan boshlanib, ong-u shuurimizga onamizning oq suti va pok niyati bilan singadi. U insonni ezigulikka, fidoyilikka chorlaydi, or-nomusini himoya qilishga ruhlanitiradi. Bu tuyg'u tug'ilib o'sgan zamanga, tuproqqa, tarix va kelajakka cheksiz sadoqatdir. Bunday avlod to'g'ri yo'l dan adashmaydi, zarga ham, zo'rga ham bo'yin egmaydi. Nega deysizmi? Chunki ularning tomirida ulug' ajdodlarimiz qoni oqaypti, vujudida esa ular dan meros buyuk qudrat jo'sh urmoqda.

Bu tuyg'uni jonimiz va qonimiz, ruhiyatimizga jo' qilib, singdirib yuborishimiz uchun, avvalo, yurtimizning yaqin va uzoq tarixini yaxshi bilishimiz kerak. Axir qadimiy va gozal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshliklaridan biri bo'lgan. Bu zaminda Amir Temurddek jasorat timsoli, Alisher Navoiydek so'z sultoni, Mirzo Ulug'bekdek astronomlar yetishib chiqqan. Ularning yurt va el sha'ni, qudrati, tinchligi, ma'rifati, ma'naviyati yo'lida ko'rsatgan xizmatlari har birimiz uchun ibratdir.

► Davomi 3-beta

Islohot odimlari

INSON HUQUQLARI TA'LIMIDAN INSON HUQUQLARI MADANIYATI SARI

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim yangi O'zbekistonda inson huquqlari madaniyatini shakllantirishga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Hech kimning unutilishga haqqi yo'q — qonun talablari va inson huquqlari — biz uchun oliy qadriyat".

Inson huquqlari ta'limi nima?

Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq yangi islohotlar sharoitida "inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri — eng muhim qadriyat" tamoyili e'tirof etilmoqda. Shu munosabat bilan yillar davomida amal qilib kelgan "davlat — jamiyat — inson" tamoyili yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz va yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyalarida "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgartirildi.

Bularning barchasi, o'z navbatida, ta'limning o'ziga xos yo'nalishi hisoblanuvchi inson huquqlari sohasidagi ta'limni izchil rivojlantirishni taqozo qilmoqda. Bunday ta'lim barchaning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirish va unga har tomonlama rioya etilishini ta'minlashda birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim insonlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jabhalarda, umuman, o'z hayotiga daxldor bo'lgan qarorlarni qabul

qilishning barcha jarayonlarida to'laqonli ishtirokini ta'minlash, shuningdek, huquqbuzarliklar, zo'rovonlik va nizolarning oldini olishda ham muhimdir. Inson huquqlari umumijahon deklaratsiyasi e'lon qilingandan so'ng xalqaro hamjamiyat inson huquqlari va asosiy erkinliklarini tan oldi hamda ularga rioya etilishini xalqaro inson huquqlari normalari va mexanizmlari orqali ta'lim qilishni boshladi. Ushbu huquqlardan biri — ta'lim olish huquqi insonning barcha huquqlaridan foydalanish uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim — uzoq muddatli va umrdob davom etadigan jarayon. Bu sohada ta'lim doirasida har bir kishi boshqalarning qadr-qimmatini va hurmatiga nisbatan toqatli bo'lishni hamda barcha jamiyatlarda mazkur hurmatni ta'minlashning vositalari hamda uslublaridan foydalanishni o'rganadi. Shu ma'noda, inson huquqlari sohasidagi ta'lim barchaning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirish va unga har tomonlama rioya qilinishini ta'minlashda fundamental ahamiyat kasb etadi.



Haftalik

MILLIY MEDIAMIZDA YANGI FORMAT: OCHIQ MULOQOT MAYDONI

Qoraqalpog' xalqining Nukus shahrida barpo etilgan milliy qora uyi dunyodagi eng katta o'tov sifatida Ginesning rekordlar kitobidan o'rin olgan. Ushbu o'tovda ilk bor Prezidentimiz tadbirkorlar bilan muloqot o'tkazib, mamlakat iqtisodiyoti uchun yangi sahifa ochib bergan edi.

Ushbu katta o'tov yana bir yirik loyihaning start nuqtasiga aylandi. O'zbekiston bo'yab keng quloq yoza boshlagan media haftalikning ilk bosqichi Orolbo'yida tashkil etildi. Besh kun mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimiz axborot makonining tom ma'nodagi qaynoq markaziga — o'ziga xos innovatsion media xabga aylandi.

E'tiborsiz, ushbu loyihada quruq akademik ma'ruzalar formatidan voz kechildi. Mashg'ulotlar soha yetakchilarining jonli amaliyoti bilan boyitildi. Natijada loyiha kutilganidan ko'ra ancha keng qamrov oldi. Unda turli yo'nalishda faoliyat yuritayotgan soha vakillari ishtirok etdi. Hududdagi 700 ga yaqin media vakili yagona maqsad yo'lida ochiq muloqot maydonida jam bo'ldi. Shu ma'noda, loyiha shunchaki navbatdagi o'quv kursi emas, balki axborot uzatishning eskicha qoliplaridan voz kechib, vozeqlikka mutlaqo yangi nashrga qarashga undaydigan haqiqiy tajriba maktabi bo'ldi.

► Davomi 4-beta

► Davomi 2-beta



MILLIY MEDIAMIZDA YANGI FORMAT: OCHIQ MULOQOT MAYDONI



Boshlanishi 1-betda

Mazkur haftalik milliy mediamizda yangicha ovoz, ijodiy ruhni yanada jonlantiradigan kuchli impuls vazifasini o'tadi. Mashg'ulotlarni ishtirokchilar turfa qarash va bilim darajasi bilan boshlagan edi. Yakunda ular global tarmoqdagi axborot xurujlariga qarshi tura olish, sun'iy intellekt dan mohirona foydalanish va kontent yaratishda kreativ yondashuv bo'yicha ko'nikmaga ega bo'ldi.

Media haftalikda "Qonliko'1 xabarlar" gazetasi jamoasi ham faol ishtirok etdi. Gazetamiz ijodiy xodimlari zamonaviy jurnalistika taballari, yangi media texnologiyalar va sifatli kontent yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmasini oshirdi. — deydi "Qonliko'1 xabarlar" gazetasi muharriri Guljilama Ametova. — Spikerlarning bog' tarbiyasi, chuqur bilim barchamiz uchun katta mahorat darsi sifatida ajoyib taassurot qoldirdi. Ayniqsa, zamonaviy jurnalistika, yangi media yo'nalishlar va amaliy ko'nikmalar bo'yicha qimmatli maslahatlar biz uchun juda foydali bo'ldi.

Haqiqatan, besh kunlik fikr almashuvlar davlat idoralari hamda jurnalist va blogerlar o'rtasidagi ko'rinmas devorni olib tashladi. Har ikki tomonda o'zaro ishonch va konstruktiv hamkorlikka asoslangan yangi media madaniyatga mustahkam poydevor o'rnatildi.

Qoraqalpog'istonda o'tkazilgan media haftalik doirasida spiker sifatida so'zga chiqdim, — deydi O'zbekiston Milliy axborot agentligi vakili Ikrom Avvalboev. — To'g'risini aytganda, bu men uchun yangi bosqich bo'ldi. Muhimi, tajribam bilan o'rtoqlashayotgan vaqtda o'zim uchun ham muhim jihatlarini belgilab oldim. Bu loyiha asosida bir-birimizdan ko'p narsa o'rgandik.

Haftalikning intensiv dasturidan media sohasining eng dolzarb masalalari o'rin oldi. Ushbu saboqlarning ahamiyati, avvalo, loyihaga eng kuchli spikerlar jalb etilganidir. Mashg'ulotlarni nazorat qaynatiruvchilar emas,

balki bugun mamlakat media maydonining ob-havosini belgilab berayotgan amaliyotchi ekspertlar o'tdi.

Media haftalikda 60 dan ortiq axborot xizmati rahbarlari va xodimlari uchun kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiluvchi zamonaviy va dolzarb mavzularda treninglar tashkil etildi, — deydi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti axborot xizmati rahbari Islam Matekev. — Asosan, axborot sohasini tartibga soluvchi qonunchilik asoslari, "Davlat organlari va OAV hamda blogerlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish" bo'yicha uslubiy qo'llanma, OAV, bloger va inflyuenserlar bilan samarali hamkorlik mexanizmlari, axborot xizmatlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlari hamda SMM va algoritmlar asosida rasmiy sahifalarni yuritish yondashuvlari yo'nalishlari bo'yicha zarur ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Mamlakatimiz yetakchisi 10 ming SMM mutaxassisini tayyorlash bo'yicha tashabbusi

ilgari surgan edi. Haftalik doirasida ushbu loyihaning bajarilishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Qator tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan mazkur bepul kurslarga 7000 dan ortiq, jumladan, Qoraqalpog'istonda 500 dan ziyod yigit-qiz qamrab olindi. Hozir kurslarni muvaffaqiyatli tamomlaganlari soni 1000 dan oshdi. Ahamiyatli, bitiruvchilarga barqaror daromad topishi uchun maxsus imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda. Bu imkoniyatdan foydalangan ko'plab yoshlar allaqachon yuqori daromad chegarasiga chiqishga ulgurdi. Haftalik maybonda kurs bitiruvchilariga sertifikat topshirildi.

Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligi va Kontent markazi tashabbusi bilan mamlakat bo'ylab 1000, xususan, Qoraqalpog'istonda 175 yigit-qiz mobilografiya yo'nalishida bepul o'qitilgan edi. Ushbu yosh ijodkorlar ham media haftalikda ishtirok etdi. Hozir mazkur bitiruvchilarning 68 nafari mutaxassisligi bo'yicha faoliyat yuritib, daromad topmoqda. Yana 23 nafari sinov muddati bilan turli tashkilotlarga ishga qabul qilingan.

Haftalik doirasida axborot sohasi vakillari kundalik faoliyatida asqotadigan ikkita yangi risola taqdimoti o'tkazildi. Jumladan, "Davlat organlari va OAV hamda bloger o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning huquqiy asoslari" qo'llanmasi davlat idoralari va media vakillari o'rtasidagi axborot almashinuvini qonuniy, shaffof, axloqiy me'yorlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Unda axborot olish kafolatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari taqdimoti o'tkazildi, butun respublika bo'ylab davom etadi.

Haftalik hududidagi media vakillari ishtirokida yirik media forum va sertifikatlar topshirish marosimi bilan yakunlandi. Qoraqalpog'istonda boshlangan media haftalikning navbatdagi bosqichi Xorazm viloyatida o'tkazilib, butun respublika bo'ylab davom etadi.

Minajatin QUTLMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Dildagi gaplar

"BU BOG'LAR BIR BOG'LAR BO'LADI HALI"

Yashillik — hayot ramzi. Tabiat yashillanishi bilan boshlanadigan Navro'zi olamini bejiz yangi kun deb atamaymiz. Uning tashrifidan ko'ngillar ham xuddi tabiat kabi yasharib borayotgan ayni damlarda butun mintaqada ekologik barqarorlikni saqlashning tashabbuskori bo'lgan Prezidentimiz yana bir insonparvarlik harakatini ilgari surdi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berdi.

Davlatimiz rahbari tadbirida nutq so'zlab, bu oljanob maqsad yo'lida mamlakatimizning barcha hududida 2030-yilgacha qilinadigan ishlar ko'lamini bayon etdi. Hatto o'z krugida bog' barpo etishi uchun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlariga 400 million so'mdan mablag' ajratilishini qayd etdi.

2025-yilda mamlakatimiz miqyosida umumiy yashillik 14,2 foizga yetkazilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich joriy yil 30 foiz oshirilishi haqiqatan ham ko'lam nechog'li kengayib borayotganini ko'rsatib turibdi. Shu kuni dendrologiya bog'iga ilk niholni Prezidentimiz o'tqazdi.

Jarayonda ishtirok etgan BMTning O'rmonlar bo'yicha forumi raisi Ismoil Belen bu harakat davlatimiz rahbarining nufuzli tashkilot

minbarida turib, dunyoda ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha ilgari surgan takliflariga hamohang va chinakam insonparvarlik tashabbusi ekanini bildirdi. Ayni paytda barcha viloyatlarda ham ana shunday bog' barpo etishga kirishilib, nihollar, gullar ekildi.

Bu — chindan-da yillarga, asrlarga tatigulik tashabbus. Aytishlaricha, milliy boqqa nafaqat O'zbekistonning asriy yashaydigan daraxtlari, balki dunyoning turli mintaqasidan nihollar, shifobaxsh butalar keltirib o'tqazilar ekan. Bu makonda ilmiy amaliyotga bog'lab, inson salomatligi uchun zarur givohlar ham o'stiriladi.

Milliy bog'ning institut huzurida barpo qilingani, joylarda esa "yashil" texnikumlar tashkil etilib, mutaxassislar tayyorlanishi

Xadichaxon KARIMOVA,
jurnalist



Mehr mehvari

ODAMLARI BAKTIYOR ZAMIN

Prezidentimizning 2025-yil 8-oktyabrda qarorida respublika bo'yicha 33 tuman va shaharga "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman (shahar)" maqomi berilishi nazarda tutilgan edi. Qarorga binoan "Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturi tasdiqlangan. Ushbu dastur doirasida Surxondaryo viloyatida ham hududlarni kompleks rivojlantirish, infratuzilmani yaxshilash va biznes imkoniyatlar hamda yashil maydonlarni ko'paytirishga qaratilgan ishlar izchil bajarilmoqda.

Sherobod tumanidagi Dehqonariq, Termiz tumanidagi Qahramon va Qo'ng'iro't, Denov tumanidagi Bog'i Eram va Qumqo'rg'on tumanidagi Yangiyer mahallalarida bu boradagi amaliy sa'y-harakatlar boshlangan. Jumladan, Yangiyerda sanoatni jadal rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tuzilgan. Yangiyer mahallasining umumiy maydoni 370,2 gektar. Shundan 350 gektari ekin maydoni. Aholi nufusi esa 4800 nafar bo'lib, 1023 xonadonda 1631 ta oila yashaydi.

Dastur bo'yicha davlat budjetidan 5 milliard so'mdan ko'proq mablag' ajratilgan. Buning evaziga 9 ta loyiha doirasida 8 ta

kilovatli 2 ta transformator o'rnatildi, 1 kilometr elektr tarmog'i tortildi. Bundan tashqari, ariqlarning 2 kilometri betonlandi. Ichimlik suv uchun qo'shimcha 3,4 kilometrli tarmoq tortildi va ichki yo'llarning 3,3 kilometri asfaltlandi. Shu tariqa mahalla infratuzilmasi tubdan yaxshilandi.

Qarorda yangi qiyofaga ega bo'layotgan mahallalarga kamida 50 million dollarlik sarmoya jalb qilish nazarda tutilgan. Shu orqali oziq-ovqat yetishtirish, mebelsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda kamida 10 tadan yirik investitsiya loyihasini ishga tushirish rejalashtirilgan.

korxonalarini rivojlantirish, tadbirkorlik loyihalarni tartibli joylashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratilmoqda. Mahallada faoliyat yuritayotgan chakana savdo, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish obyektlari uchun bo'sh yer uchastkalari, binolar ajratib berilmoqda.

Iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun namunaviy hududlarda yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish belgilangan. Shu asosda Yangiyerda bandlik ta'minlanib, kambag'allikni qisqartirishga erishilmoqda. Loyiha doirasida mahallada yangi bog'cha, dam olish maskanlari, bolalar va sport maydonchalari, piyodalar hamda salomatlik yo'lakchalari barpo etildi. Shuningdek, hududda kichik bozor, savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari, hunarmandchilik ustaxonalarini ochish rejalashtirilgan. Mahallada tadbirkorlik yanada rivojlanyapti. Aholi uchun qulay muhit vujudga kelyapti. Buni yangi tashkil etilgan tikuvchilik sexi misolida ham ko'rish mumkin. Shu kabi loyihalar tufayli qanchadan-qancha xotin-qizlar ishga bo'lmoqda. Yangiyerliklar tomorqada issixona tashkil etishda ham yetakchilardan. Deyarli har bir xonadonda 2 yoki 3 tadan issixona bor.

Loyiha doirasida 78 tadbirkorlik tashabbusini amalga oshirish reja qilingan. Natijada mahalliy budjetga 1 milliard 400 million so'm qo'shimcha soliq tushumi tushadi. Bu Yangiyer mahallasida ishsizlikni keskin kamaytirishga xizmat qiladi. Qisqa muddatda mahallada shahar muhiti kirib bordi. Kambag'allik va ishsizlikdan xoli, obod va namunali maskanga aylandi. Yashash va biznes qilish uchun infratuzilma yanada yaxshilandi. O'z navbatida, hududning iqtisodiy o'sish sur'ati ham o'rtacha ko'rsatkichdan kamida 2-3 foiz ko'tarildi.

Mahallamiz tumanlararo qo'shib hisoblaganda, hudud aholisi 48 mingdan oshadi. To'g'risi, bir-birini to'ldirib borayotgan dasturlar, loyihalar tufayli ko'z o'ngimizda mahallamiz obod bo'lib boryapti. Yangiyerdagi ijodiy o'zgarishlar yondosh mahallalarga, biz — yoshlarga ham kuch beraypti.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



obyektda bunyodkorlik ishlari bajarildi, — deydi "Yangiyer" MFY raisi Nasiba Suyunova. — Natijada qisqa muddatda 100 ta yanach ustun, bitta 400 kilovatli va yana bitta 160

Yangiyer mahallasida ham o'z mahsuloti bilan tashqi bozorlarga chiqmagan kamida 3-5 tadan korxonani eksport faoliyatiga jalb qilish ko'zda tutilgan. "Taraqqiyot va yetakchilik maskani" dasturi doirasida hududda sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi



Kun mavzusi

"RAQAMLI MAHALLA" PLATFORMASI

MUROJAATLARNI TEZKOR KO'RISH VA MUAMMOLARNI HAL ETISHGA XIZMAT QILADI

Prezidentimiz raisligida joriy yil 13-mart kuni aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida ushbu yo'nalishda bajarilgan ishlar tahlil qilinib, mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha galdagi muhim vazifalar belgilab berilgan edi.

yuritilmoqda. Ijtimoiy yordam, grantlar, subsidiyalari, bandlik va mehnat migratsiyasiga oid ko'rsatkichlar tahlil qilinmoqda.

— Bu platforma "mahalla yetiligi" uchun juda katta qulayliklar yaratmoqda. Birinchidan, qo'g'ozbozlikdan qutuldi. Ikkinchidan, mahalladoshlarimizning murojaatini to'g'ridan to'g'ri elektron bazalarga yuklash va murojaat natijalarini bilish imkoniyatiga egamiz, — deydi Alisherobod mahallasi raisi Gulchehra Ahmedova. — Xalq bilan muloqot hayotdagi muammolarni ayni dasturlar, loyihalar tufayli ko'z o'ngimizda mahallamiz obod bo'lib boryapti. Yangiyerdagi ijodiy o'zgarishlar yondosh mahallalarga, biz — yoshlarga ham kuch beraypti.



RAQAMLI MAHALLA PLATFORMASI



Barchasi bir ilovada - biz siz bilan birgamiz. Birgalikda muammoni hal etamiz

Unda murojaatlar bilan ishlashda "mahalla yetiligi"ning mas'uliyatini keskin oshirish maqsadida Prezident Virtual qabulxonasida har bir mahalla uchun alohida kabinet ochish va yoshlar yetakchisi va mahalla raisi tomonidan yuritilishi belgilandi.

Mazkur vazifalar ijrosi doirasida "Raqamli mahalla" platformasi joriy etildi. Ayni paytda qariyb 9000 mahalla fuqarolar yig'ini mazkur tizimdan foydalanmoqda. Unga o'n millionga yaqin oila, 38 milliondan ortiq fuqaroning ma'lumotlari kiritilgan. Shuningdek, fuqarolar ma'lumotlari, ulardan tushayotgan murojaatlar va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar ham mazkur platforma orqali raqamlashtirilmoqda.

Ushbu platforma Prezident Virtual qabulxonasi bilan integratsiya qilinmoqda. Bu fuqarolar murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish, muammolarni manzilli hal etish hamda samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, integratsiya fuqarolar murojaatlariga sabab bo'layotgan omillarni tahlil qilish va yechimi bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega.

— Bu platforma Prezidentimizning tegishli farmoni va qarori asosida 2024-yildan boshlab

amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda, — deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi bo'lim boshlig'i Fozilbek Jahongirov. — Natijada bu yo'nalishda qo'g'oz sarfi kamaydi va ish samaradorligi oshdi. "Raqamli mahalla" platformasi joriy etilganidan keyin "mahalla yetiligi" a'zolariga planshetlar berildi. Platformaning mobil ilovasi ishlab chiqildi. Unda fuqarolar va xodimlar uchun maxsus bo'limlar ochildi. Bunda xodimlar o'zi aniqlagan muammolarni tegishli vazirlik va idoralarga yuborishi, fuqarolar esa murojaatini "mahalla yetiligi"ni xabardor qilgan holda elektron tarzda berish imkoniyatiga ega.

O'zbekiston mahallalari uyushmasida "Raqamli mahalla" platformasi axborot markazi tashkil etilgan, "mahalla yetiligi" a'zolari faoliyati, natijadorlik va samaradorlik monitoring qilib borilmoqda. Markazda fuqarolar murojaatlarining hal etilishi ham nazoratga olingan.

Mazkur tizim mahalla raislari va yetiligi a'zolarining faoliyatida chinakam yordamchiga aylani ulgurdi. Xususan, poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek tumani Alisherobod mahallasida ham platforma orqali hujjatlar elektron shaklda

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

**O'zbekiston
Respublikasi davlat
mustaqilligining
35
yilligi**



AVVAL VATAN, KEYIN JON

TOMIRIDA ULUG' AJDODLARIMIZ QONI OQAYOTGAN XALQNING HAYOTI YORUG', KELAJAGI PORLOQ



Salohiddin ISOMIDDINOV,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Masalan, Sohibqiron Amir Temur bobomizning harbiy-siyosiy faoliyati, bebaho harbiy merosi, ayniqsa, "Temur tuzuklari" asari yoshlarni yurt qayg'usi va uni sevib ardoqlash ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Asardagi hayotiy o'g'it va nasihatlar yoshlarni odillik, adolat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ma'naviy saviyasini yuksaltirishda juda qo'l keladi.

Najmiddin Kubro ham Vatan uchun jon fido qilib, so'nggi nafasiga uning himoyasida sobit turgan ajdodlarimizdan. Chingizxon Xorazmi istilo qilishdan avval elchi yo'lib, undan oila a'zolari bilan shaharni tark etib, xohlagan tomoniga ketishini so'ragan vaqtda ham u: "Mening umrim shu tuproqda kechdi. Shu xalq bilan birga hayotning butun achchiq-chuchugini totdim. Endi uning boshiga og'ir kun tushganida tashlab ketish mardlikdan emas!" deya so'zida qat'iy turib, yurtini yovdan himoya qilgan. O'zingiz aytib, Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun sadoqat shu emasi, aslida?

Bugun ko'hna tariximizni chuqur o'rganish payti keldi. Milliy tariximizni obdan o'rganib, kelgusi avlodlarga yetkazish, yoshlar ongida Vatanga muhabbat, yurtimiz kelajagiga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotni qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirish, ularni vatanparvarlik vaktsinasi bilan emlash bugun hamamizning eng asosiy ishimizga aylanishi zarur. Yoshlarda ilm-fan va ta'lim olishga intilish tuyg'usini kuchaytirish, jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashimiz dardkor.

Bugun jahonda geosiyosiy vaziyat o'ta keskin tus olmoqda. Hozirgi notinch va murakkab zamonada yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlash, yoshlarni el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash eng dolzarb vazifaga aylanmoqda. Chunki tinch hayotimizga, ongu tafakkurimizga qilinayotgan tajovuzlar ichida yoshlar ongida milliy tuyg'uni zaiflashtirish harakatlari ham borki, bu har birimizdan, eng avvalo, ona yurt himoyachisi, vatanparvar bo'lishni talab etadi.

Prezidentimiz yangi O'zbekistonning istiqbolini yoshlar qiyofasida ko'rmoqda va

ularga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, yoshlar bilan bo'lib o'tgan muloqotda ham bu masala e'tibor markazida bo'ldi: dunyoda kun sayin yoshlar ongini egallash bo'yicha yangi tahdidlar yuzaga kelayotgan sharoitda barcha darajadagi rahbarlar yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangi ish tizimiga o'tishi zarurligi urg'ulandi.

Shu nuqtaiy nazardan, barchamiz yoshlar ongida "O'zbekiston mening Vatanim, men shu xalqning bir vakiliman, ulug' ajdodlarim to'laqonli vorisiman, yurtni asrab-avaylash muqaddas burchim", degan ezgu tushunchani shakllantirishimiz kerak. Farovon hayotimiz, porloq kelajagimiz uchun amalda Vatan himoyachisi bo'lishimiz, ertamiz egalarini ham shu ruhdan kamol toptirishimiz lozim.

Ba'zan vatanparvarlikni katta ishlar bilan bog'laymiz. Aslida, u qonunga rioya etish, adolati himoya qilish, millat obro'sini oshirish, xalq manfaati uchun mehnat qilishda namoyon bo'ladi.

Sadoqat tuyg'usi

Vatanga sadoqat buyuk qudrat. Tug'ilib o'sgan yurtimiz bilan bog'liq barcha xotiralari bizni bu tuyg'uga bog'lab turadi. Bu tuyg'u insonni pok niyatli, fidoyi va kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi. Sadoqatli kishi o'z manfaatini doim xalq manfaatidan ustun qo'yadi.

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi ham el-yurt istiqbolini uchun kurashgan, bunga o'z hayotini bag'ishlagan ajdodlarimizdan. Ona yurtga muhabbat va sadoqat, og'nomus va shon-sharaf bobida unga teng keladigan ulug' shaxslar dunyoda kamdan kam uchraydi.

Mirzo Ulug'bekning "Olam ahli Jaloliddindan oldin ham, keyin ham bunday bahodir jangchini ko'magan. Bu zotning azmu shijoati oldida hatto buyuklikning o'zi ham ta'zim qiladi", degan so'zlari fikrimizning yaqqol ifodasidir. Ayniqsa, uning o'n bir yil davomida mo'g'ul bosqinchilariga qarshi janglari va yovlarni titratgani, Sind daryosi bo'yida o'z qo'shinidan to'rt marta ko'p bo'lgan Chingizxon qo'shiniga mardona qarshi chiqqani yurtga bo'lgan sadoqatining yorqin ko'rinishidir.

Hatto Chingizxondek sarkarda uning matonatini ko'rib: "Jaloliddindek qahramon farzandi bor ota naqadar baxtlidir", deb tan bergan. Bu bejiz emas. Chunki u shu tuproq, shu Vatan uchun jonini fido qildi. U kabi vatanparvar, jasoratli ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish har bir ota-onaning oliy burchiga aylanishi zarur. Ular oila, mahalla, millat sha'nini ko'z qorachig'iday asrab-avaylasa, farzandlar ham ulardan o'mak olib, shu ruhdan o'lasavay, vatansevar bo'lib kamol topadi.

Agar ongining shakllanish davridayoq bolaga nima uchun sadoqat kerakligini tushuntira olsak, unda ona, Vatan, millat haqidagi dastlabki ko'nikmalarni hosil qilishga muvaffaq bo'lamiz. Bunday avlod boshqa qadriyatlarimiz beqard

qilmagan holda o'z madaniyati, tili va urf-odatlarini qadrlay boshlaydi.

Bu tushuncha el farzandi uchun yurt boshiga ish tushsa bilindi. Sadoqat yo'q joyda uning o'rmini ishonchsizlik egallab oladi. Sadoqat orqali kishilar bir-biriga ishonadi, ishonchdan

g'oyasi amalda qudratli harakatga aylandi. Ko'p yillar davomida Vatan sog'inchi bilan yashagan yurtodoshlarimiz Prezidentimizning vatanparvarligi, millatparvarligi tufayli O'zbekistonga, ona yurtiga, oilasi bag'riga qaytdi. Bugun chet davlatlarda o'z sohasi

taqdirida ham hammasini Vatan uchun sarflagan bo'lar edim". Bu shunchaki oddiy so'zlar emas, uning zamirida fidoyilik, sadoqat va yuksak vatanparvarlik ruhi mujassam. Ertangi kunimiz bugungidan farovon bo'lishi uchun har birimizda shunday millat va kelajak taqdiriga qayg'urish hissi bo'lishi zarur.



jamiyatga fayz kiradi, yurt rivojlanadi, davlat taraqqiy etadi. Zotan, u taraqqiyot g'ildiragi uzluksiz aylanishini ta'minlaydigan ma'naviy kuchdir.

Bolaligimizda nuroniyalarimiz "Odamni tug'ilgan yurt tuprog'i o'z bag'riga tortadi. Vatan onadek muqaddas, undan ta'ma qilish gunohi azim. Odam Vatani, garchi u cho'l bo'lsa ham, boricha sevadi. Undan boshqa joyda xotirjam bo'la olmaydi. Zamonlar o'tishi, asrlar almashishi bilan hammasi narsa unutilishi mumkin, lekin Vatan uchun qilingan xizmat aslo unutilmaydi", deb ko'p aytishardi. Bugun bu so'zlarning ahamiyati naqadar salmoqli ekanini yanada chuqur anglab, his qilib turibman.

Yurtdan uzoqda yashash mumkin. Lekin inson qayerda bo'lmasin, ko'nglida vatani olib yurishi kerak. Vatan degani faqat yashash joyi emas, unda har bir odamning tarixi, qonidagi kechmishlari, tayanch tuyg'ulari, hayot tomirlari, xullas, insonni inson sifatida tutib turuvchi hamma narsa mujassam.

Prezidentimiz faoliyatining dastlabki yillaridanoq xorijda yashab, turli sohalarda ishlayotgan ko'plab vatandoshlarimizni tarixiy Vatan atrofida yanada jipslashtirish, qalbi va ongiga ona yurt bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish maqsadida milliy tariximizda bo'lmagan voqea — minglab yurtodoshlarimizni Vatanga chorladi. Ularni munosib ish, yaxshi daromad bilan ta'minladi. Natijada ilm-fanimizga xorijning ilg'or yutuqlari bevosita kirib keldi.

"Inson qadri uchun, inson baxti uchun" ezgu tamoyiliga asoslangan Yangi O'zbekiston

bo'yicha bilim va malaka orttirgan ko'plab fuqarolarimiz mamlakatimizning davlat va xo'jalik boshqaruv organlarida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan Vatanimiz ham, yurtodoshlarimiz ham yutdi.

Fuzuliy aytganidek, "Mening bitta hayotim bor, bordi-yu, mingta hayotga ega bo'lgan



Tinchlik qadri

Inson hayotidagi eng ulug' va beqiyos ne'mat nisoliyini bilasizmi? Bu, shubhasiz, tinchlik va oyoishatlik. U bor joyda barcha boylik, mehnat va umidlar o'z ahamiyatini yo'qotadi. Jamiyat umidlar va rivojlanish, taraqqiy etishdan ortda qoladi. "Tinchlik — farovonlik yo'ldoshi" deb bejiz aytilmagan.

Chunki tinchlik qo'liga kiritayotgan yutuqlarimizning bosh mezonini, erishayotgan marjalarimiz, farzandlarimiz baxti va kamolining asosi. U bor joyda investitsiya keladi, turizm, ilm-fan, texnologiya rivojlanadi, adolat qaror topadi va inson o'z salohiyatini to'liq namoyon qila oladi. Eng muhimi, inson qadri yuksalib, orzu-istaklari ro'y bog'a chiqadi.

Bugun ayrim mamlakatlarda bo'layotgan notinchliklar, o'zaro nizolar o'sha davlatlar aholisining yechilmagan muammosini yechgani yoki hech kimni mudofaa-maqsadiga yetkazgani yo'q. Aksincha, minglab odamlarning joniga zomin bo'ldi, obod go'shalar xarobaga aylandi, ishlab chiqarish izdan chiqdi.

Inson hayoti yo'lga o'xshaydi. Bu yo'lda turli burilishlar, sinovlar, qiynchiliklar va imkoniyatlar uchraydi. Kimdir bu yo'lda adashadi, kimdir qat'iyat bilan intiladi, nima uchun? Chunki uning aniq maqsadi, rejasi bor. Buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy shahzoda Badiuzzamonga yozgan maktublaridan birida: "Odamning mudofaa-maqsadi bo'lmasa, balolardan omon qolmaydi. Ammo har kishining murodi ko'proq bo'lsa, Haq taolo amriga itoati ham bo'ladi", degan so'zlari zamirida ham chuqur ma'no bor.

Zero, tiklanishsiz yuksalish bo'lmaganiday, buyuk niyat va maqsadsiz kuchli harakat, nurafshon kelajak bo'lmaydi. Maqsad esa insonni olg'a yetaklab, harakatga undaydi, unga kuch beradi. Inson hayotiga mazmun va baraka bag'ishlaydi. Millionlarni birlashtiradi,



Munosabat

So'nggi o'n yilda Qoraqalpog'istonga butunlay yangi hayot nafasi kirib keldi. Yangilanishlar ko'lami shunchalik kengki, uning hayotbaxsh nafasi barcha sohada sezilayotir. Muhimi, har bir inson taqdiri ijobiy o'zgarishlar bilan boyib bormoqda.



Qutli HOSHIMBETOVA,
Qo'ng'iro't tumani
"Qoraqalpog'iston" shaharcha
fuqarolar yig'ini raisi

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" dagi qarori bilan tanisha turib, o'tgan yillardagi yutuqlarimiz birma-bir ko'z o'ngindan o'tdi. Qoraqalpog'iston haqida gap borganida Orolni eslamaslikning imkoni yo'q. Chunki Orolning qurigan tubidan ko'tariladigan tuz va chang yillar davomida global ekologik muammo bo'lib kelmoqda. Ammo yaqin vaqtlargacha uni bartaraf etish uchun amaliy natija beradigan ish qilinmagandi. Orolbo'yi yoshlari olib shaharlarga ommaviy ko'chib ketishga majbur bo'lgani bor gap. Yangi O'zbekistondagi ilk o'zgarishlar davridayoq mamlakatimiz yetakchisi Orolbo'yiga e'tibor qaratadi.

Olis tumanlarda aholi bandligini ta'minlashga, ayvollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga jiddiy ahamiyat berildi. Muhimi, Orol muammosiga amaliy yechim topildi. Saratonda qaragan kishining ko'zi

YUKSAK MAQSADLAR ILA YASHASH SAODATI



toliqib, adog'i ko'rinnaydigan bycdy qum barxanlari yashilik bilan qoplanga boshlandi. Prezidentimiz BMTning yuksak minbaridan turib, Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatga e'tibor qaratdi. Ushbu global

chidamli boshqa o'simliklar ekildi. Himoya o'rmonzorlari yaratildi. Havoga ko'tarilayotgan chang-to'zon miqdori 2018-yildagiga nisbatan 17 foiz kamaydi.

Yaqinda Prezidentimiz "Yashil makon" umummilliy loyihasi asosida ko'chat ekish tadbirida ishtirok etdi. Ushbu tadbir doirasida ilgari surilgan yangi tashabbuslar sabab ekologik vaziyatni yanada yaxshilash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Bundan tashqari, "Qoraqalpog'iston Respublikasini 2026-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kelgusi yillar uchun mo'ljallangan dasturlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror ham bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. "Yashil makon" umummilliy loyihasi izchil davom etadi. Natijada 2030-yilgacha 1 million gektarga cho'l iqlimiga chidamli o'simliklar ekildi. Buning uchun esa zarur mablag', texnika, umuman, moddiy resurslarning barchasi hal etilgan. Biz faqat ishlarni to'g'ri tashkil etib, muddatida sifatlilikni ta'minlashimiz kerak.

Yuqoridagi qayd etilgan qaror asosida Nukus shahri atrofiga 15 ming gektar maydonda

"yashil belbog'" yaratish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilyapti. O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot tajriba stansiyasida Xitoydan keltirilgan 35 xil o'simlik urug'i 10 gektarga ekilib, galofit bog'i tashkil etildi.

Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazining tajriba yer uchastkalarida xorijdan keltirilgan va cho'l iqlimiga chidamli o'simliklar ekilib, sinovdan o'tkazilyapti. Shuningdek, ekologiya mutaxassislarini tayyorlash uchun 2026/2027-o'quv yilidan Ellikqal'a tumanida "yashil texnikum" ochilmoqda. Mazkur turdagi o'quv muassasalari talabalari uchun 17 ta o'rmon xo'jaligi, 7 ta tabiiy qo'riqxon, 18 ta chiqindi poligoni, 2 ta botanika bog'i, 10 ta gidrometeorologiya stansiyasida amaliyot uchastkalari tashkil etiladi. Nukus shahrida Iqlim o'zgarishi muzeyi ishga tushiriladi.

Yana bir quvonchli xabar, cho'llanishni kamaytirish uchun Xitoy tajribasi asosida ishlab boshlanadi. Buning uchun Armasoy, Qorako'l, Muborak, Karmana va Nukus tumanlarida 50 gektarda suvsizlikka chidamli galofit bog'lari yaratiladi. Bu yerda yetishtirilgan galofit urug'lari kelgusida minglab gektardagi sho'rlanishni kamaytirib, tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida biz, mahalla faollariga alohida ishonch bildirdi. Yurtimizni yashilik va yaxshilikka burkash uchun boshlangan xayrli ishlarda faol qatnashib, boshqalarga namuna bo'lishga chaqirdi. Bu chaqiriq biz uchun vazifa emas, sharaftir.



INSON HUQUQLARI TA'LIMIDAN MADANIYATI SARI



Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazi direktori, akademik,
BMTning Inson huquqlari
qo'mitasi a'zosi

► Boshlanishi 1-betda

Inson huquqlari madaniyati nima degani?

Keyingi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari ta'limi va inson huquqlari madaniyatini rivojlantirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Boshqa har qanday madaniyatlar qatori inson huquqlari madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish va yuksaltirish uchun, o'z navbatida, ayni sohada ta'lim va tarbiya berish, bilim va ko'nikmalarni oshirish, tegishli axborot hamda ma'lumotlarni taqdim etishni tizimli yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Negaki inson huquqlari sohasidagi ta'limga:

— inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya;

— ushbu huquqlar to'g'risida bilish huquqi;

— jamiyat va hamjamiyatlarda inson huquqlarini himoya qilish hamda targ'ib etishning usullari va vositalari kiradi.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim barcha yoshdagi insonlarni qamrab oladigan hayotiy ma'rifat jarayonidir.

Ta'lim adolatsizlikka barham berish usuli bo'lsa, inson huquqlari sohasidagi ta'lim sohada eng maqbul usuldir. U demokratik jamiyat qurish maqsadida huquqlar, erkinliklarni anglab yetish va ulardan faol foydalanish, majburiyatlarga amal qilishni nazarda tutuvchi inson huquqlari madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Inson huquqlari madaniyati huquqiy madaniyat emas, balki bir qadar aniq yo'nalishi ekani, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan bilan alohida ajralib turadi. Inson huquqlari madaniyati quyidagi 4 ta unsurdan iborat:

birinchisi — insonning o'z huquqlarini bilishi;

ikkinchisi — shu huquqlarini ro'yog'ba chiqarishi;

uchinchisi — bu jarayonda o'zgalarning huquqlarini buzmasligi;

to'rtinchisi — boshqalarga ham o'z huquqlarini ro'yog'ba chiqarishda yordam berishi.

Inson huquqlari madaniyati har bir jamiyatda barqaror taraqqiyot, tinchlik va farovonlikning muhim poydevori, insonni qadrlash va huquqlarini ta'minlashning asosiy mezonidir. Jamiyatda inson huquqlari madaniyatini shakllantirish fuqarolarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish hamda qonun ustuvorligini mustahkamlashning muhim shartlaridandir.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniyligini amoyillarining so'z siz ta'minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir. Biz bu fikrni yanada teran anglab olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazaridan, **Konstitutsiya hamda qonun talablariga o'g'ishmay amal qilish ma'naviy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart**".

Shu bois, so'nggi yillarda inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish, uni milliy va xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni chog'da jamiyatimizda konstitutsiyaviy madaniyatni shakllantirish dolzarb va ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Davlatimiz rahbari uqtirganidek, "Islohotlarimiz hal qiluvchi bosqichga kirayotgan bugungi kunda biz Konstitutsiyamizning har bir normasini davlat va jamiyat hayotida amaliy faoliyat mezoniga aylantirishimiz zarur. Ayniqsa, yoshlarimizga Asosiy qonunimizning mazmun-mohiyatini chuqur o'rgatish, ularni konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida yuksak ongli va vatanparvar fuqarolar, siyosiy tafakkur va huquqiy madaniyat egalari etib tarbiyalash oldimizda turgan g'oyat muhim vazifadir".

BMTning inson huquqlari ta'limiga alohida e'tibori

BMT inson huquqlari sohasidagi ta'limga katta e'tibor berib kelayotgani bejiz emas. Chunki inson huquqlari sohasidagi ta'lim inson huquqlari va asosiy huquqlarini amalga oshirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Inson huquqlari sohasidagi ta'lim tenglikni ta'minlashga sezilarli darajada ko'mak berish, nizolar hamda inson huquqlarini buzish holatlarining oldini olish va demokratik jarayonlarda ishtirok etishni kuchaytirishga hissa qo'shishga qaratilgan. Ya'ni inson huquqlari sohasidagi ta'lim turli jamiyatlarda tili, tanasining rangi, jinsi, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, tug'ilishi yoxud boshqa holatlaridan qat'i nazar, hech qanday kamsitilishga yo'l qo'ymasdan barcha insonlarni qadrlash va hurmat qilishga o'rgatadi.

Ushbu sohada ta'lim normalari ko'plab xalqaro hujjatlarga kiritilgan. Dastavval, 2011-yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasi qabul qilinganini qayd etish lozim.

Mazkur deklaratsiyada belgilanganidek: **birinchidan**, har bir inson va jamiyatning har bir a'zosi ta'lim olish va o'qitish orqali inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga ko'maklashishi lozim;

ikkinchidan, har bir inson ta'lim olish huquqiga ega va ta'lim inson shaxsini har tomonlama rivojlantirishga, qadr-qimmatini his etishga, barcha kishilarga erkin jamiyatning foydali ishtirokchilari bo'lishga, barcha millatlar, irqiy, etnik yoki diniy guruhlarga o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Deklaratsiya BMTga a'zo davlatlarga inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiyani ta'minlash hamda rag'batlantirish yuzasidan aniq majburiyatlarni yuklaydi. Finlyandiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Ozarbayjon kabi 60 ga yaqin davlat ushbu deklaratsiya asosida o'z milliy dasturlarini qabul qilgan, ular safida O'zbekiston ham bor.

BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar, ya'ni 2004-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturi e'lon qilingan. Bundan maqsad barcha davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va biznes sektorida inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashishdir.

Hozirgi vaqtgacha Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining quyidagi 4 ta bosqichi amalga oshirildi:

birinchi bosqich: 2005-2009-yillar — maktablarda inson huquqlari sohasidagi ta'lim jarayonlarini qamradi;

ikkinchi bosqich: 2010-2014-yillar — oliy ta'lim tizimi, shuningdek, o'qituvchi-murabbiylar va davlat xizmatchilari uchun inson huquqlari sohasidagi ta'limga bag'ishlandi;

uchinchi bosqich: 2015-2019-yillar — ommaviy axborot vositalari vakillariga inson huquqlari sohasida ta'lim berildi;

to'rtinchi bosqich: 2020-2024-yillar — ta'lim tizimi orqali yoshlarda tenglik,



kamsitmaslik, bag'rikenglik va inson huquqlariga rioya qilish kabi muhim prinsiplarni mustahkamlash, shu orqali inkluziv, tinch va adolatlilik jamiyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

BMT tomonidan 2025-2029-yillar Inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish davri sifatida e'lon qilindi. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 2024-yil 9-oktabrda "Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturi: beshinchi bosqich uchun harakatlar rejasini" bo'yicha rezolyutsiyasini qabul qildi.

Deklaratsiyani amalga oshirishda O'zbekistonning ishtiroki qanday?

Inson huquqlari sohasidagi ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq ushbu global jarayonda O'zbekistonning o'rni va ishtiroki aynan nimalarda namoyon bo'lmoqda, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Bu haqda fikr yuritganda, dastavval, O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari sohasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tashabbuslarni ko'lab-quvvatlab, bu jarayonda faol ishtirokchi sifatida qatnashib kelayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Xususan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasini ishlab chiqish yuzasidan mamlakatimiz 2004-yildayoq o'z takliflarini taqdim etgan.

Boshqacha aytganda, bu boradagi faol ishtirokimiz, bir tomondan, tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha O'zbekistonning tashabbuskorligi misolida yaqqol ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan, sohaga oid xalqaro hujjatlarini ro'yog'ba chiqarishga qaratilgan milliy hujjatlarini tasdiqlash hamda tizimli asosda amalga oshirishimizda ko'rinadi.



“

Bugungi kunga qadar Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini amalga oshirish borasida "yo'l xaritasi"ning 30 bandidan 17 ta bandi bo'yicha ishlar to'liq bajarilgan, bu ko'rsatkich qariyb 57 foizni tashkil etadi. Qolgan bandlar ijrosi yuzasidan ishlar izchil davom etmoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekistonda inson huquqlari sohasi, jumladan, ushbu yo'nalishdagi ta'limni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Fikrimni bir qator amaliy misollar bilan izohlashga harakat qilaman.

Birinchidan, mamlakatimiz parlament tomonidan 2019-yilda BMTning Inson huquqlari sohasidagi ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasi qoidalarini amalga oshirish bo'yicha **Milliy harakatlar dasturi** qabul qilindi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Prezidentining 2020-yil 22-iyundagi farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi tasdiqlandi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining ijrosini ta'minlashga qaratilgan "Yo'l xaritasi" 78 ta banddan iborat bo'lib, 2020-2025-yillarda amalga oshirildi. Milliy strategiya ijrosi doirasida, jumladan, oliy o'quv yurtlari uchun inson huquqlari bo'yicha o'quv kurslari joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

Uchinchidan, 2022-yil 5-6-dekabr kunlari Samarqand shahrida "Inson huquqlari sohasida ta'lim" global forumi o'tkazildi. Ushbu forum O'zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi va Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ilgari surgan tashabbuslari asosida tashkil etildi hamda inson huquqlari sohasida ta'limni yanada rivojlantirish masalalari muhokamasiga bag'ishlandi.

Samarqand forumi doirasida mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarini o'qituvchilari va talabalari, davlat organlari va NNT vakillari uchun jami 7 mingdan ziyod ishtirokchi qamrab olingan inson huquqlari bo'yicha mahorat darslari tashkil etildi. Forumning muhim natijalaridan biri **Markaziy Osiyoda inson huquqlari sohasida ta'limni rivojlantirish bo'yicha Samarqand harakatlar rejasini** qabul qilingani bo'ldi.



“

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasining ijrosini ta'minlashga qaratilgan "Yo'l xaritasi" 78 ta banddan iborat bo'lib, 2020-2025-yillarda amalga oshirildi. Milliy strategiya ijrosi doirasida, jumladan, oliy o'quv yurtlari uchun inson huquqlari bo'yicha o'quv kurslari joriy etishga alohida e'tibor qaratildi.

uchun inson huquqlari sohasidagi ta'limni tashkil etish;

to'rtinchidan, inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha tegishli tadqiqotlar o'tkazish, baholash, ilg'or tajriba va olingan saboqlar bilan o'rtoqlashishga qaratilgan amaliy ishlar bajarildi.

O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 7-iyundagi farmoyishiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tashkil etilgani bu borada dolzarb va tarixiy ahamiyat kasb etdi.

Farmoyishda Milliy komissiyani tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad barcha uchun universal bo'lgan huquqni himoya qilish normalari va prinsiplari, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning xalqaro kafolatlari to'g'risidagi xabardorlikni, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini yanada oshirishdan iborat ekanini ta'kidlab, uning vazifa va vakolatlari aniq belgilab berildi. Jumladan, xalqaro shartnomalar normalari va standartlari, BMTning huquqni himoya qiluvchi tuzilmalari tavsiyalari hamda O'zbekiston jamiyatining tarixiy, milliy va madaniy qadriyatlarini inobatga olgan holda Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini ishlab chiqish masalasi kun tartibiga ko'yildi.

Shu tariqa dunyo tajribasidan andoza olgan holda inson huquqlari sohasidagi ta'lim tizimidagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida Prezidentimizning 2023-yil 7-fevraldagi qarori bilan **O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi** tasdiqlandi. Ushbu muhim hujjat inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini nishonlash bo'yicha butun dunyo miqyosidagi kampaniya davrida qabul qilingani ulkan ahamiyatga molik bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturida belgilangan

axborot berish, ma'rif va o'qitish tizimini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini milliy qonunchilik va xalqaro standartlar talablarini asosida yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari va asosiy vazifalari ijrosi ta'minlandi.

O'zbekistonda nima uchun ushbu ta'limga ustuvor e'tibor qaratilmoqda?

Mamlakatimizda keyingi yillarda inson huquqlari sohasidagi ta'limga ustuvor e'tibor berilmoqda. Nega deganda, yangi O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini rag'batlantirish, himoya qilish va ularga rioya etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'z navbatida, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda rivojlantirish bu borada zarur bilim va tushunchalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilganidek, O'zbekiston huquqiy davlatdir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasidagi ta'lim dasturi inson huquqlari sohasidagi ta'limni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab, uni milliy ta'lim tizimiga to'liq integratsiya qilish, barcha bo'g'irlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishni maqsad qilgan keng qamrovli dasturni hayotga tatbiq etishga yo'l ochdi.

Shu bilan birga, dastur axborot berish, ma'rif va o'qitish tizimini bosqichma-bosqich kengaytirish hamda takomillashtirish, kadrlar tayyorlash tizimini milliy qonunchilik va xalqaro standartlar talablarini asosida yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha izchil yuritilayotgan davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vazifalari va yo'nalishlarini belgilab beradi.

Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi 7 ta ustuvor yo'nalishdan iborat. Ya'ni:

birinchisi — yoshlarning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xabardorligini oshirish;

ikkinchisi — davlat organlari xodimlarining inson huquqlari va gender tenglik sohasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish;

uchinchisi — inson huquqlari sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlarni ko'lab-quvvatlash;

to'rtinchisi — aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining inson huquqlari sohasida xabardorligini oshirish;

beshinchisi — inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlarining faolligini oshirish;

oltinchisi — zamonaviy texnologiyalar, badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya berish tizimining samaradorligini oshirish;

yettinchisi — inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Ayni ustuvor yo'nalishlar doirasida mamlakatimiz hududlarida huquqiy muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun tizimli asosda o'quv kurslari o'tkazildi. Yoshlar o'rtasida huquqiy mashg'ulotlar, "yo'zgi maktab"lar, ijtimoiy tadqiqotlar va turli tanlovlar bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamda barcha hududiy axborot-resurs markazlarida "Konstitutsiya va inson huquqlari" nomli adabiyotlar burchagi (o'quv, ilmiy-uslubiy, xalqaro nashrlar va boshqalar) tashkil etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri axborot-kutubxona markazlarida ham shunday adabiyot burchaklari ochildi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz tomonidan O'zbekiston Milliy kutubxonasi va uning hududiy kutubxonalari — Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlariga inson huquqlari bo'yicha 6 ming 442 nusxada adabiyotlar taqdim etildi.

Bugungi kunga qadar Inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturini amalga oshirish borasida "yo'l xaritasi"ning 30 bandidan 17 ta bandi bo'yicha ishlar to'liq bajarilgan, bu ko'rsatkich qariyb 57 foizni tashkil etadi. Qolgan bandlar ijrosi yuzasidan ishlar izchil davom etmoqda.

O'zbekistonda inson huquqlari holati, shu jumladan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlarga bajarilishini monitoring qilishda jamoatchilik nazorati rolini oshirish maqsadida davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ham BMTning inson huquqlari bo'yicha ustav organlari va shartnomaviy qo'mitalari qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan doimiy monitoring va maslahatlashuvlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ta'kidlash joiz, 2025-yil 15-yanvarda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2024-yil 9-oktabrdagi "Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturi: beshinchi bosqich uchun harakatlar rejasini" nomli 57/10-sonli rezolyutsiyasi ijrosi yuzasidan tayyorlangan O'zbekiston Respublikasining Milliy hisoboti BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasiga taqdim etildi.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tayyorlagan ushbu ma'lumot "Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining to'rtinchi bosqichini

amalga oshirishni baholash" mavzusi borasida BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari ma'ruzasida o'z aksini topdi. Mazkur hujjat Inson huquqlari bo'yicha kengashning 2025-yil 8-sentabrda 3-oktabrgacha Yenevada bo'lib o'tgan oltinchi sessiyasida ko'rib chiqildi.

Hisobotda O'zbekistonda Inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha milliy komissiyaning faoliyati, inson huquqlari sohasidagi milliy ta'lim dasturi va uning amalga oshirish yuzasidan monitoring, inson huquqlari bo'yicha asosiy konferensiyalar xususida ijobiy fikrlar bildirildi.

Beshinchi bosqich: qanday yangi vazifalar belgilandi?

Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 3-martdagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" qabul qilindi. Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya tarkibi ham tasdiqlandi.

Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" 24 banddan iborat. Unda inson huquqlari sohasida davlat siyosatini samarali amalga oshirish, inson huquqlari madaniyatini shakllantirish, yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish ishlari nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, inson huquqlari va raqamli texnologiyalar, gender tenglikka alohida e'tibor qaratish, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari to'g'risidagi xabardorlikni oshirish hamda inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichida belgilangan vazifalarni samarali va o'z vaqtida amalga oshirish kabi dolzarb maqsadlarga erishish chora-tadbirlari belgilandi.

Jumladan, har yili dekabr oyida "Inson huquqlari" haftaligi tashkil etish, maktablarda "Kelajak soati" darslariga inson huquqlariga oid mavzularni kiritish, aholi o'rtasida ekologik huquqlar bo'yicha axborot-targ'ibot kampaniyalari o'tkazish kabi tadbirlar ham ko'zda tutilgan.

Qarorda bu borada qator vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga tegishli vazifalar yuklatildi. Xususan:

— Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga — inson huquqlari sohasida ta'lim bilan bog'liq muammolari yo'nalishlarga qaratilgan maqsadli ilmiy tadqiqot loyihalari tanlovi e'lon qilish;

— Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga — pedagog kadrlar uchun "A'froh-muht va iqlim o'zgarishi bo'yicha huquqiy bilimlar" mavzusida tematik malaka oshirish kurslari tashkil etish;

— Inson huquqlari bo'yicha Milliy markazga — "Bolalar va yoshlar uchun inson huquqlari ta'limi: gender tenglik, iqlim o'zgarishi va raqamli inkluziya" milliy innovatsion tashabbuslar tanlovi o'tkazish;

— Ijtimoiy himoya milliy agentligiga — nogironliligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish;

— "El-yurt umidi" jamg'armasiga — inson huquqlarining dolzarb masalalari bo'yicha xorijiy oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarida malaka oshirishni tashkil etish.

Joriy yilda, bir tomondan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha ta'lim to'g'risidagi deklaratsiyasining 15-yilligi, ikkinchi tomondan, ushbu deklaratsiya talablarining mamlakatimizda ro'yog'ba chiqarilishi uchun asosiy mas'ul tashkilot — **Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil topganining 30-yilligi nishonlandi.**

Shuningdek, 2026-yilda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt qabul qilinganining 60 yilligi, Rivojlanish huquqi to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilinganining 40 yilligi, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganining 20 yilligi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng tanтана qilindi.

Bu muhim sanalarni munosib kutib olish, shubhasiz, Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturining beshinchi bosqichini amalga oshirish bo'yicha Milliy komissiya, shuningdek, Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturi ijrosiga jalb etilgan barcha davlat tashkilotlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Inson huquqlari zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti darajasini ko'rsatib turuvchi mezonidir. Afsuski, dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy o'zgarishlar va qurolli mojoralar inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Global miqyosdagi shunday qaltis hamda murakkab sharoitda yangi O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini o'qitish va targ'ib etish, himoya qilish va ta'minlash borasida amalga oshirgan ishlarimizdan ko'ra, oldimizda turgan vazifalar ko'p ekanini ham ayni haqiqat. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, bu oliy qadriyatni tom ma'nod qator topitirish — biron-bir manzilga yetib borib to'xtash, degani emas. Inson huquqlarini himoya qilish ulduksiz davom etadigan jarayon ekan



ISLOHOTLARNING SHIRIN MEVASI

DUNYONING NUFUZLI TEXNIKA UNIVERSITETIGA 100 FOIZLI GRANT SOHIBLARI

Poytaxtimizdagi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari — Elbek Zohidjonov va Asilbek Sunnatovning ota-onalari bugungi ta'lim islohotlari mevasini ko'rib turibdi. Zero, ikkala o'quvchi ham AQSHning nufuzli oliygo'haridan biri — Massachusetts texnologiyalar institutining (MTI) 100 foizli grantini qo'lga kiritdi. Ushbu grantning umumiy qiymati 385 ming dollarni tashkil etadi.

Dunyoning birinchi raqamli texnika universiteti bo'lgan MTI ilm-fan va innovatsiyalar markazi sifatida tanilgan. Har yili universitetga hujjat topshiradigan minglab yoshlarning qabul ko'rsatkichi atigi 4 foiz ekanidan raqobatni taxmin qilaversiz. 100 dan ortiq Nobel mukofoti sovrindori yetishib chiqqan oliygo'har hujjat topshirishning o'zi ham shu ma'noda bir yutuq, aslida. Asilbek va Elbekning talabalikka qabul qilinishi esa mamlakatimiz miqyosidagi ulkan natija. Zero, moliyaviy jamg'armasi qariyb 25 milliard dollar bo'lgan MTI iqtidorli talabalarga yirik tadqiqotlar o'tkazishi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi. Shu jihatdan yigitlar xalqaro oliygo'harlarda o'qish orzusunda yurgan tengdoshlari qalbidagi uchqunni alangalatgan bo'lsa, ota-onalarning esa bu yo'lga mas'uliyatini yanada oshirdi. Endi professional ta'limga yo'naltirilayotgan sarmoya salmog'i ortsa ortadiki, sira kamaymaydi.

Kichikligidan matematikaga, 7-sinfdan informatikaga qiziqishi ortgan Asilbek

Sunnatov 9-10-sinflarda xalqaro nufuzli matematika olimpiadasida ikki marta kumush medal sovrindori bo'ldi. Ixtisoslashtirilgan maktabdagi ustozlari Kamoliddin Yusupov uning matematikaga qiziqishini yanada oshirdi. Buning uchun unga vaqt ajratib, ilmi va mehriani ayamadi. Chaqoq shogird esa SAT, IELTS imtihonlaridan yuqori natijalarni qo'lga kiritdi. O'tgan yili xalqaro informatika olimpiadasida O'zbekiston tarixidagi birinchi kumush medalga erishdi.

— MTIga qabul natijasi chiqqan payt, to'g'risini aytam, o'zimizni salbiy xabarga ham ruhan tayyorladim. Chunki dunyoda birinchi o'rinda turadigan universitetga kirish imkoniyati juda pastligini bilaman. Biroq natijalarni ko'rgan paytim "Tabriklaymiz!" degan yozuvni o'qidim-u, ko'zlarimga ishonmadim. Elbek va ustozlarimiz bilan birga edik. Ular ham sevinchdan qiyoqirib yubordi. Bir maktabdan ikki o'quvchining qabul qilinishini kutmaganimiz uchun so'z bilan ta'riflab bo'lmaydigan darajada hayajonda



qoldik. Bir-birimizni tabrikladik, — deydi Asilbek Sunnatov.

O'zining MTIga qabul qilinishidan ko'p umidvor bo'lmagan, maktabdoshi uchun quvonib turgan Elbek Zohidjonov ham omadi kelganiga daslab ishonmadi. Zero, o'sha pallagacha baribir bilim yetmasa kerak degan o'йда edi. Shuning uchun ham o'zi erishgan natija uni ijobiy ma'noda dovdirab qo'ydi.

Yigitlar o'zi o'qiyotgan maktabda zamonaviy shart-sharoitlar yetarilgisi

barobarida o'qituvchilarning barchasi tajribali ekanini muvaffaqiyatining muhim omili deb biladi. Bunday imkoniyat xalqaro universitetlarga o'qishga kirishda katta yordam bergan, davlatimiz rahbari iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashda yangicha yondashuvlarni taklif qilayotgani bejiz emasligini alohida e'tirof etdi.

— Bunday sharoitlarsiz dunyoga chiqishga umuman imkonimiz bo'lmas edi. Chunki xalqaro oliygo'harlarga hujjat topshirish uchun

ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lishi kerak, — deydi Elbek Zohidjonov. — MTI dunyo bo'yicha eng kuchli o'quvchilarni tanlab oladi. Biz esa ana shundaylar bilan bellashish uchun faqat va faqat professional bilim oldik. Maktabimizda darslar boshqacharoq formatda, qiyinlashtirib o'tiladi. Olimpiada paytida ana shu format juda asqatdi.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab ta'limi xalqaro andozalar darajasiga chiqyapti. Maktabda

VIRTUAL MAKON:

FUQARO MANFAATLARI unda qanchalik HIMOYALANGAN?



Raqamli texnologiyalar — kundalik turmush tarzimizning ajralmas qismi. Bank xizmatlari, kredit tizimi, turli xizmat ko'rsatish platformalari, to'lov va hisob-kitob amaliyotlari allaqachon virtual makonga ko'chgan. Bir paytlar hujjat, navbat, muhr va imzo bilan bog'liq murakkab jarayonlarni bugun bir necha soniya ichida elektron qurilmalar orqali amalga oshirish imkoni mavjud.



Nodiraxon OBIDOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Ammo raqamli makonning ham muammoli masalalari, xavf omillari bisiyor. Axborot oqimi tezlashgan, shaxsiy ma'lumotlar aylanishi kengaygan sari insonlarning huquqiy xavfsizligi masalasi murakkablashib boryapti. Xususan, fuqarolar nomiga yashirincha kredit rasmiylashtirish, biometrik ma'lumotlarni noqonuniy egallash, mobil ilovalar orqali akkauntlarni buzish, elektron identifikatsiyani soxtalashirish holatlari keskin ko'paygan. Hatto ayrimlar o'z nomiga qarz yozilganini kech bilib, moliyaviy va ruhiy bosim ostida qolmoqda.

Aslida, har qanday moliyaviy majburiyat shaxsning ongli roziligi, erkin irodasi va bevosita ishtiroki asosida vujudga keladi. Roziliksiz shakllangan majburiyat huquqiy munosabat sifatida mavjud bo'la olmaydi. Jahon amaliyotida aynan shu tamoyil ustuvor. Rivojlangan davlatlarda kibernetika sohasida rasmiylashtirilgan kredit jabrlanuvchining zimmasiga yuklanmaydi, balki moliyaviy tizimning xavfsizlik darajasi, banklarning mas'uliyati va davlat nazorati doirasida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston ham raqamli taraqqiyot yo'lidan qat'iy qadamlar bilan bormoqda. Elektron hukumat, masofaviy bank xizmatlari, onlayn kreditlash, mobil to'lov tizimlari keng joriy etilyapti. Ushbu jarayon iqtisodiy faollikni oshiradi, xizmatlar sifatini yaxshilab, aholining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, raqamli xavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, kibernetika xavfsizligi qarshi kurash masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan.

To'g'ri, bu aytishgagina oson. Amalda esa jinoyat shakli shamoyillari o'zgarгани sari uning aniqlanishi, isbotlanishi va oldini olish jarayoni ham murakkablashyapti. Oldingi davrlarda firibgarlar hujjat soxtalashirish, imzo qalbaklashirish, shaxsni aldash yo'li bilan harakat qilgan bo'lsa, hozirgi sharoitda ular

elektron identifikatsiyani buzish, parollarni qo'lga kiritish, biometrik ma'lumotlarni o'g'irlash, mobil ilovalar orqali tizimga kirish yo'llaridan foydalanmoqda.

Bugun eng ko'p uchrayotgan kibernetika turlaridan biri — shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish asosida kredit rasmiylashtirish. Firibgarlar ijtimoiy tarmoqlar, soxta saytlar, telefon qo'ng'iroqlari, yolg'on xabarlar orqali fuqarolarning pasport ma'lumotlari, bank rekvizitlari, SMS kodlar, biometrik tasvirlarni qo'lga kiritmoqda. Ushbu axborotlar asosida turli moliyaviy platformalarda soxta tranzaksiyalarni amalga oshirib, kreditlar rasmiylashtirilmogda yoki elektron hamyonlardan mablag' yechib olish holatlari kuzatiladi.

Mazkur jarayonda "ijtimoiy muhandislik" deb ataladigan usullar alohida o'rin tutadi. Jinoyatchi texnik himoya tizimlarini buzishdan ko'ra kishilarning ishonuvchanligidan, shoshqaloqliqidan, huquqiy savodsizligidan foydalanishni ma'qul ko'radi. Ya'ni u o'zini bank xodimi, davlat vakili, texnik mutaxassis sifatida tanishtirib, fuqaroni aldash orqali maxfiy ma'lumotlarni olishga erishadi. Tizim texnik jihatdan himoyalangan bo'lsa ham odamlarning sodda va ishonuvchanligi o'ziga



pard berib qoladi. Shuningdek, elektron imzo, biometrik tasdiqlash, mobil identifikatsiya, yagona login tizimlari fuqaroni tez va masofadan turib tanib olish imkonini bersada, ma'lumotlar bazalariga noqonuniy kirish, zararli dastur va havolarlar, soxta ilovalar orqali identifikatsiya tizimlarini buzish kabilar uchrab turadi.

Kibernetika xavfsizligi yana bir muhim xususiyati uning chegarasizligidir. Jinoyatchi bir davlat hududida turib, boshqa mamlakat fuqarosiga zarar yetkazishi mumkin.

Serverlar, hisob-raqamlar boshqa-boshqa joyda, jabrlanuvchi esa yana boshqa hududda joylashgan bo'lishi mumkin. Shu kabi qator murakkabliklari tufayli raqamli jinoyatchilik bugungi davrimiz yashirin tahdid sifatida jamiyat barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. U moliyaviy tizimga ishonchni susaytiradi, insonlarni doimiy xavotirda yashashga majbur etadi, davlat va fuqaro o'rtasidagi ishonch rishtalarini zaiflashtiradi. Shu bois, kibernetika xavfsizligi, uning mexanizmlarini chuqur o'rganish, huquqiy va institutsional choralarni izchil rivojlantirish har qanday zamonaviy huquqiy davlat oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Subyekt, iroda va rozilik

Kredit munosabatlari zamonaviy iqtisodiy tizimning asosiy tayanch ustunlaridan biri sanaladi. Kredit shartnomasi ikki tomon o'rtasidagi ongli kelishuv mahsul bo'lib, har qanday huquqiy bitimning asosida uchta muhim omil jummasam: subyekt, iroda va rozilik. Subyekt — huquq va majburiyatlarini amalga oshirish bog'liq layoqatiga ega bo'lgan shaxs. Iroda — shaxsning ichki xohishi, ongli qarori, mustaqil tanlovi.

haqiqiyli shaxsning ongli roziligiga bevosita bog'liq holda baholandi. Agar shaxs aldangan, majburlangan, xabarsiz qolgan holatda bitimga "kiritilgan" bo'lsa, bunday huquqiy munosabat bekor qilinadi. Raqamli muhit ushbu prinsipi o'zgartirmaydi, aksincha, uning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Texnologiya vosita sifatida xizmat qiladi, huquqiy mohiyat esa o'zgarishsiz qoladi.

Ya'ni raqamli muhitda sodir etilayotgan firibgarlik holatlari kredit munosabatlari qanday ham mazmun olib kirayotgan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisadir. Bir qarashda bunday holatlarda ham kredit shartnomasi mavjud, mablag' ajratilgan, hisob-kitob amalga oshirilgan bo'lib ko'rinadi. Shu sababli ko'plab hollarda bu jarayon oddiy moliyaviy munosabat sifatida talqin qilinishi mumkin. Aslida, mazkur shakli ko'rinish oldida huquqiy mazmun butunlay yo'qolgan bo'ladi.

Firibgarlik orqali yuzaga kelgan kreditlar masalasi raqamli adolat tushunchasi markazida turadi. Agar tizim jinoyat oqibatini fuqaro zimmasiga yuklasa, huquqiy davlat tamoyillari zaiflashadi. Agar jabrlanuvchi himoyalansa, raqamli muhitga ishonch mustahkamlanadi. Shu nuqtada huquq texnologiyadan ustun turishi, inson manfaatlari moliyaviy foydadan yuqori qo'yilishi ta'minlanishi davlat va

shaxsning haqiqiy roziligi mavjud bo'lmasa, bitim huquqiy mohiyatini yo'qotadi. Roziliksiz rasmiylashtirilgan kredit huquqiy munosabat sifatida baholalanmaydi, bitim shakllan mavjud bo'lib ko'rinmas-da, mazmunan haqiqiy emas deb hisoblanadi. Chunki unda asosiy element — erkin iroda mavjud bo'lmaydi. Firibgarlik, aldov, ma'lumotlarni noqonuniy qo'lga kiritish orqali amalga oshirilgan kredit operatsiyasi huquqiy bitim emas, jinoyat mexanizmining bir qismidir.

Fuqarolik huquqi nazariyasida bitimning

jamiyat munosabatlarida adolat tamoyillarining qanchalik ustuvor ekanini amalda tasdiqlovchi muhim belgidir.

Ishonchni mustahkamlovchi asosiy omil

Raqamli iqtisodiyot davrida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanini aytдик. Yurtimizda



Mulohaza

keyingi yillarda masofaviy bank xizmatlari, onlayn kreditlash, mobil to'lov tizimlari jadal rivojlanib, aholining moliyaviy faolligi sezilarli darajada oshdi. Shu jarayon bilan birga kibernetika xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, firibgarlikning oldini olish masalalari ham normativ-huquqiy tartibga solinishning yangi bosqichiga ko'tarildi.

Ana shunday huquqiy mexanizmlardan biri O'zbekiston Markaziy banki boshqaruvining tegishli qarori bilan tasdiqlangan Kredit va to'lov tashkilotlari, to'lov tizimi operatorlari tomonidan jismoniy shaxslarga masofadan moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda axborot xavfsizligi va kibernetika xavfsizligini ta'minlash hamda frod holatlarining oldini olish bo'yicha minimal talablar to'g'risidagi nizomdir. Ushbu nizom masofaviy identifikatsiya jarayonlarini kuchaytirish, ko'p bosqichli tasdiqlash mexanizmlarini joriy etish, shubhali operatsiyalarni real vaqt rejimida aniqlash, ichki nazorat tizimini mustahkamlash kabi talablarni o'z ichiga oladi. Hujjatga ko'ra, kredit tashkilotlari va to'lov tizimi operatorlari uchun axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish, xodimlar malakasini oshirish, texnik infratuzilmani muntazam auditdan o'tkazish majburiyati belgilangan.

Nizomning eng muhim jihatlaridan biri esa jabrlanuvchi maqomini aniq belgilash mexanizmi hisoblanadi. Agar fuqaro nomiga uning roziligisiz, xabarsiz kredit rasmiylashtirilgan bo'lsa va bu holat tekshiruv jarayonida firibgarlik ekanini tasdiqlansa, shaxs qarzdor emas, jabrlanuvchi sifatida

e'tirof etiladi. Shu paytdan boshlab undirish jarayoni to'xtatildi, foizlar va jarimalar hisoblanmaydi, kredit tarixi salbiy qaydlar bilan to'ldirilmaydi. Tizimning ustuvor vazifasi qarzni undirish emas, aksincha, huquqiy adolati tiklashni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Zero, raqamli taraqqiyot faqat texnologik ko'rsatkichlar bilan emas, aynan inson manfaatini himoya qiladigan adolati huquqiy tizim bilan baholalanadi.

Shu nuqtai nazaridan, raqamli muhitda sodir etilgan moliyaviy jinoyatlar sharoitida huquqiy tizim oldida yangi vazifa shakllanmoqda: jabrlanuvchini qarzdor emas, bil'aks huquqlari buzilgan shaxs o'laroq baholash. An'anaviy moliyaviy amaliyotda asosiy e'tibor mablag'ni qaytarishga qaratilgan edi. Yangi mexanizm esa mutlaqo boshqa falsafaga asoslanadi. Dastlab holatning huquqiy bahosi beriladi, firibgarlik alomlari aniqlanadi, tergov jarayoni boshlanadi. Shu davrdan boshlab kredit bo'yicha majburiyatlar muzlatiladi, moliyaviy bosim bekor qilinadi, shaxsning huquqiy maqomi himoya ostiga olinadi.

Huquqiy tiklash mexanizmi nafaqat moddiy zarar, balki ma'naviy va ijtimoiy oqibatlarni ham hisobga oladi. Firibgarlik qurboni bo'lgan shaxs ko'pincha ruhiy bosim, stress, ishonchsizlik holatini boshdan kechiradi. Moliyaviy muammolar oilaviy muhitga, mehnat faoliyatiga, jamiyatdagi mavqega ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tiklash jarayoni inson sha'ni va qadr-qimmatini qayta tiklash bilan uzviy bog'liq holda kechishi zarur.

Bundan tashqari, huquqiy tiklash mexanizmi raqamli jamiyatda ishonchni mustahkamlovchi asosiy omildir. Agar fuqaro jinoyat qurboni bo'lgan taqdirda davlat va moliyaviy tizim uni yolg'iz qoldirmasligiga ishonch hosil qilsa, raqamli qoidmatlardan foydalanishga bo'lgan munosabat ijobiy shakllanadi. Aks holda, texnologik rivoj jamiyatda qo'rquv va xavotir manbaiga aylanadi. Raqamli adolat tushunchasi shaxs huquqlarining virtual makonda ham real hayotdagi kabi himoyalinishini anglatadi. Inson internet xizmatidan foydalanayotgan paytida o'zini xavfsiz, himoyalangan, huquqlari e'tibord bo'lgan subyekt sifatida his qilishi lozim. Agar raqamli muhitda sodir bo'lgan jinoyat oqibatlari fuqaroning zimmasiga yuklansa, ishonch mexanizmi izdan chiqadi, oqibatda odamlar raqamli xizmatlardan voz kechadi, norasmiy yo'llarga murojaat qiladi, moliyaviy faollik pasayadi.

Huquqiy ishonchning asosiy manbai davlat va institutlarning mas'uliyatidir. Fuqaro muammoga duch kelgan taqdirda uning murojaati tinglanishiga, adolati baho berilishiga, huquqiy tiklanishiga ishonishi kerak. Shu jarayonda sud organlari, banklar, nazorat tuzilmalari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar o'zaro uygunlikda faoliyat yuritishi muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli adolat faqat muammoga javob qaytarish bilan cheklanmaydi. U profilaktika, ogohlantirish, ta'lim va axborot siyosatini ham qamrab oladi. Fuqarolarga kibernetika xavfsizligi asoslari, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash usullari, xavfli sxemalarni aniqlash yo'llari muntazam tushuntirilishi zarur. Huquqiy savodxonlik oshishi bilan firibgarlik uchun qulay muhit torayadi. Omamviy axborot vositalari ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy-siyosiy gazetalar, internet nashrlari, telekanallar, radiodasturlar orqali aholiga real misollar, huquqiy sharhlar, mutaxassislar fikri yetkazilishi lozim. Axborot faqat voqeani yoritish emas, balki jamiyat ongini shakllantirish uchun xizmat qilishi kerak. Raqamli madaniyat aynan shunday uzluksiz ma'rifiy jarayon orqali rivojlanadi.

Munojat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

